

## PROTSESSUAL CHIQIMLARNING DEMOKRATIK JAMIYAT UCHUN AHAMIYATI VA ZARURURIYLIGI

<sup>1</sup>Sayfullayev O'lmasjon Shavkat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Jinoyat-protsessual huquq kafedrasi o'qituvchisi

<sup>2</sup>Tojiboev Bexzod Zafar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ixtisoslashtirilgan filiali talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7569286>

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual qonunchiligining protsessual chiqimlari yuzasidan fikr yuritilgan bo'lib, unda protsessual chiqimlarning nima ekanligi, qanday turlarga bo'linishi takidlab o'tilgan. Maqolaning maqsadi protsessual chiqimlarning jinoyat qonunchiligidagi o'rnini nechog'li ekanligi va uning zaruriylikni tushuntirishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Protsessual chiqimlar, jinoyat qonunchiligida protsessual chiqimlarning ahamiyati, kompensatsiya ko'rinishidagi protsessual chiqimlar, benefitsiar ko'rinishdagi protsessual chiqimlar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng avvalo inson qadr qimmatini ximoya qiluvchi demokratik jamiyat qurushni o'z oldiga maqsad qilib oldi va bu yo'lda katta ishlarini amalga oshirdi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng azosi sifatida qabul qilingan xalqaro normativ huquqiy hujatlarini qabul qildi va bu huquqiy hujatlari o'z qonunlarda mujasamlashtirdi. Zero inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 2-moddasida takidlanganidek, "Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo'lishi zarur. Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, ushbu hudud mustaqilmi, vasiymi, o'z-o'zini idora qiladimi yoki boshqacha tarzda cheklanganligidan qat'i nazar biror bir ayirmachilik bo'lmasligi kerak"[1] deb takidlangandi. Bu moddada takidlangan qoidalarning barchasi O'zbekiston Respublikasi qonunlarida o'z aksini topdi. Qonuniylikni taminlashda protsessual chiqimlarning o'rnini beqiyosdir. Protsessual chiqimlar instituti jinoyat ishlari yurituvchi tizimida muhim o'rin egallaydi hamda shaxs huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishining muhim kafolati hisoblanadi. Jinoyat-protsessual kodeksining 40-bobidan o'rin olgan, bunda Jinoyat protsessual Kodeksining 318, 319, 329-moddalarida keltirib o'tilgan, protsessual chiqimlar va ularni qoplash tartibiga oid normalarning belgilanishi, ularda shu jumladan, protsessual chiqimlar ro'yxati va ularni qoplash asoslarining ko'zda tutilganligi jinoyat protsessida ishtirok etayotgan shaxslarning mulkiy manfaatlarini taminlashga xizmat qiladi. Ko'pincha huquqshinos olimlar qonunchilikda jinoyat protsessidagi protsessual chiqimlar instituti bilan fuqarolik-protsessual huquqi, xo'jalik-protsessual huquqidagi analogik chiqimlar institutlar bilan o'xshash ekanligini takidlashadi ammo shunday bo'lsa-da, boshqa tomondan jinoyat-protsessual faoliyatidagi chiqimlar farqli hisoblanadi uni ko'p jihatdan ommaviy asoslarga egaligi bilan farqlasak bo'ladi. Protsessual chiqimlar jinoyat protsessidagi barcha tarmoqlarini qamrab oladi. jinoyat-protsessual qonunchilik yaxlit holda umumiy tizimga ega bo'lib, jinoyat-protsessual faoliyat sohasiga jalb qilingan fuqarolarning huquqlariga qat'iy va

og'ishmay rioya etilishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi "Jinoyat ishlari bo'yicha protsessual chiqimlarni undirish amaliyoti to'g'risida"gi 13-son qarori qabul qilindi. Unda protsessual chiqimlar aynan nima ekanligi va u qanday tartibda undirilish belgilab berildi. Qarorga binoan protsessual chiqimlar deyilganda tegishli, jinoyat ishi bo'yicha bevosita shaxsning aybdorligiga doir dalillarni ya'ni aynan unga bevosida bog'liq bo'lgan dalillarini to'plash va tekshirish yuzasidan surishtiruv, tergov organlari va sudlar tomonidan qilingan sarf-xarajatlar tushuniladi[2]. Bundan tashqari bu xarajatlarga tergov eksperimenti yoki ekspertiza o'tkazish chog'ida buzilgan yoki yo'q qilingan narsalar qiymatini qoplash; jinoyat ishini alohida ish yurituvga ajratish; tanib olish uchun ko'rsatilgan shaxslar (ayblanuvchilardan tashqari) xarajatlarini qoplash bilan bog'liq sarflar kiritilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual qonunchiligiga muvofiq protsessual chiqimlarni quydagi ikki guruhga ajratib olish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- kompensatsiya ko'rinishidagi to'lovlar bunda asosan ishtirokchilar sarflagan xarajatlarni qoplash uchun ularga to'lanadigan pul mablag'ini tushunsak bo'ladi;
- benefitsiar ko'rinishdagi to'lovlar bunday chiqimlarga jinoyat sud ish yurituv jarayonidagi o'z majburiyatlarini bajarganligi uchun to'lanadigan mukofot puli tariqasidagi pul mablag'ini tushunamiz.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining "Jinoyat ishlari bo'yicha protsessual chiqimlarni undirish amaliyoti to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ekspertlarga, tarjimonlarga, mutaxassislariga ular surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda o'z vazifalarini bajarganligi uchun to'lanadigan haqdan, ana shu vazifalar xizmat topshirig'i tartibida bajarilgan hollar bundan mustasno ekanligi alohida takidlab o'tilgan. Umumlashtirib aytadigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksining 318-moddasiga binoan protsessual chiqimlarga quydagilarini kiritishimiz mumkin:

- jabrlanuvchilarga va ularning vakillariga, guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislariga, tarjimonlarga, xolislariga ularning protsessual harakatlar o'tkaziladigan joyga kelib ketish, turar joyini ijaraga olish xarajatlarini qoplash uchun, shuningdek sutkalik xarajat puli tariqasida beriladigan summadan;
- doimiy ish haqi olmaydigan jabrlanuvchilarga va ularning vakillariga, guvohlarga, xolislariga ularni odatdagi mashg'ulotidan chalg'itganlik uchun to'lanadigan summadan;
- ekspertlarga, tarjimonlarga, mutaxassislariga ular surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda o'z vazifalarini bajarganligi uchun to'lanadigan haqdan, ana shu vazifalar xizmat topshirig'i tartibida bajarilgan hollar bundan mustasno;
- jinoyat-protsessual kodeksining 50-moddasiga muvofiq sudlanuvchi to'lovdan ozod qilingan taqdirda yuridik yordam ko'rsatganlik uchun himoyachiga to'lanadigan haqdan;
- ashyoviy dalillarni saqlash va jo'natish bilan bog'liq xarajatlar summasidan;
- ekspertiza muassasalarida ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan summadan;
- shaxslarni ushlab, majburiy keltirish va qidirish uchun qilingan xarajatlardan;
- jinoyat ishini yuritishda qilingan boshqa xarajatlardan iborat bo'ladi[3]. Takidlab o'tish kerakki protsessual chiqimlarning zaruriyligi bu jinoyat huquqida tizimliylikni tashkil etishdan iboratdir.

Protsessual chiqimlarning undirilish tartibi qonun asosida belgilab qo'yilgan, uning asosida ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar bajargan ishlari uchun surishtiruv yoki dastlabki

tergov organlarining qaroriga yoxud sudning ajrimiga binoan haq olinish belgilab qo'yilgan. U quydagicha tartibda amalga oshirilish mumkin:

1. Ekspertlar, mutaxassislar bajargan ish uchun eng kam ish haqiga nisbatan bajargan ishning bir soatiga 0,015 – 0,020 koeffitsiyenti bo'yicha haq to'lab beriladi.
2. Tarjimonlar yozma tarjimaga – har 1000 bosma (qo'lyozma) belgi uchun eng kam ish haqiga nisbatan – 0,010 – 0,015 koeffitsiyenti bo'yicha haq to'lab beriladi.
3. Sud majlislarida yoki surishtiruv organlari va dastlabki tergov organlari o'tkazadigan so'roqlarda tarjimon sifatida qatnashganlik uchun tarjimonlar eng kam ish haqiga nisbatan - ishning bir soatiga 0,015 – 0,020 koeffitsiyenti bo'yicha haq to'lab beriladi.

Protsessual chiqimlarning to'lab tartibi shu tartibda amalga oshiriladi, bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 20-iyundagi "Advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan haq to'lash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 137-son qarori qabul qilindi, unda fuqarolarning yuridik yordam ko'rsatilganligi uchun haq to'lashdan ozod qilish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori, sudning ajrimi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokat tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha xarajatlarni davlat hisobiga o'tkazish uchun asos hisoblanish tartibi belgilab berilgan, unda oilasida har bir oila a'zosiga to'g'ri keladigan yalpi oylik daromad yuridik yordam ko'rsatilganligi uchun haq to'lashdan ozod qilish to'g'risida qaror (ajrim) qabul qilingan kundagi eng kam oylik ish haqining 1,5 baravaridan ortiq bo'lmagan shaxslar advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatilganligi uchun haq to'lashdan ozod qilinadi va xarajatlar davlat hisobiga o'tkazilishi va gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi himoyachidan voz kechishi bilan bog'liq protsessual harakatda advokat ishtirok etishi hollarida, shuningdek Jinoyat-protsessual kodeksi 52-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq jinoyat ishida himoyachining qatnashishi majburiy deb hisoblangan hollarda ham yuridik yordam uchun haq to'lash bo'yicha xarajatlar davlat hisobiga o'tkazilishi belgilab berildi[4], bu asoslar protsessual qonunchilikni mustahkamlashga xizmat qildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 2-dekabrda 1878-son bilan ro'yxatga olinib qabul qilingan, Adliya vazirligi va Moliya vazirligi qarori bilan tasdiqlangan "Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha xarajatlarni davlat hisobiga o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha xarajatlarni davlat hisobiga o'tkazish tartibi belgilash bo'yicha qarorlar tasdiqlandi[5]. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 133-son qarori bilan "Xodimlarning davlat yoki jamoat vazifalarini bajarishi, shuningdek ularning jamiyat manfaatlariga doir harakatlar qilishi bilan bog'liq kafolatli to'lovlarni to'lash tartibi"[6] tasdiqlangan. Takidlash kerakki mamlakatimiz demokratik talablarga mos keladigan jamiyat qurush yo'lidan dadil qadam tashlamoqda vabarcha tamonlama takomilashgan protsessual chiqimlar tartibni belgilay olganini yuqoridagi qonunchilik tizmi ham belgilab turubti.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak jinoyat protsessual qonunchiligining ajralmas bo'lagi bo'lgan protsessual chiqimlarning mavjud ekanligi demokratik jamiyatning ajralmas bir bo'lgi xisoblanadi, uning mavjud bo'lish prateses barqarorligining asosi sanaladi, negaki bunday chiqimlarning mavjud bo'lish ishda ishtirok etuvchi taraflarning xaragatining tizimli tashkil

etilishining va ortqicha ishga aloqadorlikni keltirib chiqarmaydi, bu chiqimlar mavjud bo`lmasa prates bosqichlarning ahamiyatini pasaytirib tashlaydi. Taklif sifatida shuni kiritish mumkinki bu chiqimlarning belgilash tartibini bir tuzulmaga berish orqali jinoyat protsessual qonunchiligining aynan shu tarmog`ini yanada rivojlantirish mumkin bo`ladi.

### **References:**

1. BMT ning 1948 yil 10-dekabrda "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>;
2. O`zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining 2009-yil 24-noyabrda "Jinoyat ishlari bo`yicha protsessual chiqimlarni undirish amaliyoti to`g`risida"gi 13-son qarori <https://lex.uz/docs/-1616840>;
3. <https://lex.uz/acts/111460>;
4. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 20-iyunda "Advokatlar tomonidan ko`rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan haq to`lash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi 137-son qarori <https://lex.uz/docs/-1363850>;
5. O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 2-dekabrda 1878-son bilan ro`yxatga olinib qabul qilingan, Adliya vazirligi va Moliya vazirligi qarori bilan tasdiqlangan "Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko`rsatish bo`yicha xarajatlarni davlat hisobiga o`tkazish tartibi to`g`risida"gi Nizom;
6. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martda bilan "Xodimlarning davlat yoki jamoat vazifalarini bajarishi, shuningdek ularning jamiyat manfaatlariga doir harakatlar qilishi bilan bog`liq kafolatli to`lovlarni to`lash tartibi to`g`risidagi" 133-son qarori;